LINGVOPOETIKADA BADIIYLIK VA TIL MUNOSABATI

Nishanbayeva Mashhuraxon Tavakkalovna
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchi
Farg‘ona shahar 37-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya
“Lingvopoetikada badiiylik va til munosabati” mavzusida yozilgan ushbu maqolada tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan Lingvopoetikada badiiylik va til munosabati, ularning badiiy matn uchun ahamiyati haqida so‘z yuritilgan. Bu mavzu ijodkor Malika Mirzo qizi she’rlari misolida tahlilga tortilgan.
Kalit so‘zlar: *lingvopoetika, badiiylik, ijodkor, badiiy matn, uslub, obraz, mahorat, ta’sir, tahlil, tadqiq.*

KIRISH

O‘zbek tilshunosligi fani o‘tgan davr mobaynida ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Buni tilning barcha sathlari bilan bog‘liq muammolarning o‘rtaga tashlanishi va olib borilayotgan ilmiy izlanishlar ham ko‘rsatib turibdi. Bunga matn tilshunosligining mustaqil sohasi bo‘lgan lingvopoetikaning katta sur’at bilan rivojlanib borayotganligini misol sifatida ko‘rsatish mumkin. Bugungi kunda ham filologiya ilmining doimgidek eng murakkab va dolzarb muammolaridan biri bo‘lgan badiiy asar tilini o‘rganishga e’tibor tobora kuchayib bormoqda. Bu tasodifiy hodisa emas. Chunki asarning har bir qismida, lirik hamda epik bayon, obrazlar talqini, badiiyati va boshqalarda asar tili muhim ahamiyat kasb etadi. Lingvopoetikaning o‘rganish obyekti bo‘lgan badiiy matn estetik butunlik sifatida juda murakkab va serqatlam hodisa. Unda ifodalangan asosiy g‘oyani anglab yetish ancha murakkab ijodiy jarayon hisoblanadi. Har qanday matnning mazmun-mohiyatini tushunish uchun tilning leksik va grammatik qatlamini bilish yetarli bo‘lsa, badiiy matnning mazmunini idrok etish uchun uning o‘ziga xos lisoniy-poetik qonuniyatlarini ham bilish talab etiladi. Badiiy asarlarni yaxlit holda, matn asosida to‘laligicha o‘rganish asar tilidagi lisoniy va badiiy jihatlarni o‘zaro aloqada tahlil qilishni taqozo etadi. Boshqacha qilib aytganda, asar tilining o‘ziga xos xususiyatlarini to‘la ochib berish uchun lisoniy va badiiy tahlil, ya’ni tilshunoslik va adabiyotshunoslikning mustahkam aloqasi asosiy shart qilib qo‘yiladi. Zero, lingvistik tahlil bilan estetik tahlil uyg‘unlashgan bo‘lishi shart.

Badiiy matnning ro‘yobga chiqishida nafaqat adabiy til, balki umumxalq tilining barcha vositalari istisnosiz ishtirok etadi. Badiiy matnda umumxalq tilidagi barcha vositalarning ishtiroki va harakati erkin bo‘ladi. Bunga badiiy matnning tilni estetik maqsad bilan o‘ziga xos usulda qo‘llanilganligi mahsuli ekanligidir. Adabiy tildagi, hatto umumxalq tilidagi til birliklarining qo‘llanilishi bilan bog‘liq ko‘plab me’yorlar shaklidagi qat’iy qoidalar badiiy matnda yumshashi va erkin harakat qilishi mumkin. Bu esa shoir yoki yozuvchi badiiy niyatining yuzaga chiqishiga xizmat qildi.

Bahodir Sarimsoqov o‘zining “Badiiylik asoslari va mezonlari” nomli monografiyasida bu haqda shunday yozadi: “Badiiy adabiyotda obraz yaratuvchi asosiy

va yagona vosita so‘zdir. Lekin badiiy adabiyotdagi so‘z oddiy so‘z emas, balki insondagi muayyan his-tuyg‘uni, holat va harakatni, o‘y va kechinmani o‘zgalar qalbiga, shuuriga ta’sir etadigan darajada ifodalaydigan so‘zdir.

Badiiy so‘z qamrovi nihoyatda keng bo‘lib, uning tarkibiga lug‘at boyligimizdagi barcha so‘zlar, nutq jihatidan yondashilsa, tarixiy, ilmiy, shevaga aloqador, shuningdek, turli ijtimoiy tabaqa yoki qatlamga mansub so‘zlar (argo, jargon) kiradi. Binobarin, har bir so‘z ijodkorning his-tuyg‘ularini, ideallarini, hayotga munosabatini ifodalab, uning ijodiy niyatlariga xizmat qila oladigan tarzda tanlanib, badiiy kontekstda qo‘llanilgandagina badiiy so‘zga aylanadi. Buning uchun badiiy asardagi so‘z ijodkorning his-tuyg‘ulari va kechinmalari bilan to‘yingan va o‘zgalarga ta’sir ko‘rsatadigan bo‘lmog‘i lozim”.[11] Darhaqiqat, badiiy so‘zda dunyo yashaydi. Badiiylikni esa har bir shaxs o‘z dunyoqarashi, g‘oyaviy-estetik tamoyillari, hissy olami va bilim doirasida idrok etadi va tushunadi. Biz tadqiqot ishimizda badiiylikni adabiyot va til nuqtayi nazridan o‘rganishni muhim deb bildik.

Adabiyot o‘zining asosiy quroli bo‘lgan so‘z vositasida turlicha obraz yaratadi va voqelikni aks ettiradi. Shunga ko‘ra, ijodkorning bosh maqsadi, asosiy g‘oyasi faqat til hamda uning tasvir va ifoda vositlari orqali reallashadi. Til badiiyligini quyidagi vositalar yordamida ta’minlash mumkin:

1.So‘zlardagi ma’no ko‘chish usullari yordamida. Masalan, Malika Mirzo qizi qalamiga mansub quyidagi she’riy nutq parchasidagi so‘zlarning ma’nolarini to‘g‘ri anglatish orqali o‘quvchining ongiga, hissiga ta’sir ko‘rsatish mumkin.

Xayollarim qanotida *kezinaman,*
Har qatimga ***shoda bo‘lib tizilaman****.*
Osmon olis, yerlar qattiq bo‘lganida
Kimga ***yaqin****, kimga* ***olis*** *sezilaman.*[12]

2.Boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirish yordamida ham til badiiyatini ta’minlash mumkin. O‘zbek tiliga ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sabablar tufayli boshqa xalqlar kabi fors-tojik va arab tillaridan ham ko‘plab sohalarga oid so‘z va atamalar o‘zlashgan. Tabiiyki, bular ona tilimizga doir so‘zlar bilan teppa-teng maqomda ishlatiladi. Quyida keltirilgan misralarda ham ularning uyg‘un holda ijodkor badiiyatining yuksak darajadagi ifodasini ko‘rsatish maqsadida qo‘llanilganligini kuzish mumkin.

Tillari ayru-ayru, labi dahan bo‘lakcha,
Dillari ayru-ayru, so‘zi suhan bo‘lakcha.
Alloh, o‘zing afu et tahlil-u ta’rifimg‘a,
Alloh deyurmiz, ammo jon ila tan bo‘lakcha.
Chah-chahlatib bulbulni, ku-kulatib qumrini,
Hofiz, g‘azalxon o‘tgay, baytulxazan bo‘lakcha. [13]

3.Badiiy asar matnda xalq maqol va iboralarini qo‘llash ham tildagi badiiylikni yuqori darajada ta’minlab beradi. Bunday birliklar shoir yoki yozuvchi fikrini aniq,

[11] Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент. 2004. 126 бет.
[12] Малика Мирзо қизи. Умрим ёғдулари. – Тошкент, “Akademnashr” нашриёти, 2011. 58-бет.
[13] Малика Мирзо қизи. Умрим ёғдулари. – Тошкент, “Akademnashr” нашриёти, 2011. 114-бет.

ixcham, jozibali ifodalashning imkoniyatlaridan biri sifatida xizmat qilib, o‘zlarining yuksak va barqaror obrazliligi bilan asarga kuchli ta’sirchanlik bag‘ishlaydi.

Bilmadik manglayda bu qanday bitik,
Qismatning qilichi keskir va o‘tkir. [14]

Bundan tashqari badiiylik so‘z birikmasi yoki gapni kutilmagan shakllarini, shevaga xos so‘zlarni, grammatik shakllarni muayyan maqsad bilan qo‘llash orqali ham yuzaga chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, xalq tili boyliklaridan, ifoda va tasvir imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanish orqali til badiiyatini yuzaga keltirish ijodkor mahoratining bosh mezoni hisoblanishi bilan birga umuman lingvopoetikaning badiiyligini belgilovchi mezon bo‘lib ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007.
2. Йўлдошев М., Қ.Ядгаров. Бадиий матннинг лисоний таҳлили. – Тошкент, 2007.
3. Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. – Тошкент: Маънавият, 2002.
4. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Тошкент: Fan, 2008.
5. Malika Mirzayeva. Asaldan chiqqan asar. – Farg‘ona, 2008.
6. Малика Мирзо қизи. Юлдузлар хаёли. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2015.
7. Малика Мирзо қизи. Умрим ёғдулари. – Тошкент: Akademnashr, 2011.
8. Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. – Фарғона: Classic, 2021.
9. Толипова Р. Нутқ – инсоннинг сийрати // Сиддиқ Мўмин. Нутқ ва ижод услубининг ҳудудий хосланиши. – Тошкент, 1998.
10. Қуронов Д., Мамажонова З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010.
11. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.

[14] Малика Мирзо қизи. Умид манзаралари. – Тошкент, “Муҳаррир” нашриёти, 2013. 49-бет.